



*Non dovuchcha navi*

hosildorlik 30-40 kg. Qurg'oqchilikka va issiqqa chidamli bo'lib, payvandtag sifatida foydalaniladi. Teshik dog' kasalligi bilan deyarli shikastlanmaydi.

**O'rikning "Hashaki" shakli** – Dashnobod qishlog'ida tomorqalarda tarqalgan o'rikning madaniy navlari urug'ko'chatlari hisoblanadi.

Kuchli o'suvchi daraxt, mevalari turli o'lchamlarda bo'ladi, asosan mayda, yumaloq-cho'zinchoq shaklda, vazni 20-35 g gacha yetadi. Rangi och-sariq rangda, ba'zan sarg'ish rangli, eti oqish-sariq, qattiq va o'rtacha sersuv. To'liq pishgandagina shirin ta'mli bo'ladi. Hosilga 3-5 yili kirib, may oyining ikkinchi yarmidan pishishni boshlaydi, to'liq pishish davri iyun oyining o'rtalariga to'g'ri keladi. O'rikning ushbu shakllari payvandtag sifatida juda qulay bo'lib, ko'pgina mahalliy navlar ushbu payvandtaglarga ulanadi hamda ular uzoq muddat hosil beradi. Ushbu o'rikning shakli atrof-muhitning turli salbiy ta'sirlariga bardoshli bo'lib, har yili hosil berishni ta'minlaydi.



*O'rikning "Hashaki" shakli*

**Ushbu buklet Bioversity/UNEP-GEF «O'zbekistonning qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimlarida ekosistemalarni boshqarish va qo'llab-quvvatlash funksiyalarini yaxshilash uchun qishloq xo'jalik ekinlari bioxilma-xilligini saqlash va undan barqaror foydalanish» loyihasi doirasida tayyorlandi va nashr etildi.**

**Taklif va mulohazalar uchun kontaktlar:**

*Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti (M.Mirzayev nom. BUvaV ITI)*

**Manzil:** 111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Guliston qishlog'i, Chimkent yo'li ko'chasi  
Tel.: (+99871) 220-24-42, (+99871) 220-26-82  
Faks: (+99871) 220-26-48  
El. pochta: [buviti@mail.ru](mailto:buviti@mail.ru)

*Rasmda: Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani, Dashnobod qishlog'idagi Sh.Qobilov tomorqasida o'sayotgan o'rikning mahalliy "Hashaki" shakllaridan biri.*

**Tuzuvchilar:** Ye.A. Doroxova, Sh.M. Axmedov, N.L. Djalilov, G.M. Karaxodjayeva  
A.Q. Qayimov umumiy tahriri ostida.



**Akademik M. Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti**

## **O'ZBEKISTONNING TOG'LI HUDUDLARIDAGI O'RIKNING MAHALLIY NAVLARI XILMA-XILLIGI**



**Toshkent 2020**



**O'rik** respublikamizning turli mintaqalarida, xususan tog'oldi-tog'li yerlarida ekib yetishtiriladi. Surxondaryo viloyatining tog'li Sariosiyo tumanida o'rikning bir qancha navlari hozirgi kunda yetishtirib, yuqori hosil olinadi. Ushbu mintaqalarda yetishtirilgan o'rikning mahalliy navlari qishning ayozli haroratlariga, kuchli shamollarga hamda yuqori namlik sharoitida turli zamburug'li kasalliklarga chidamliligi bilan ajralib turadi.

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani hududida joylashgan Dashnobod qishlog'i o'zining tuproq-iqlim sharoitlari bo'yicha o'rikning mahalliy navlari va shakllarini yetishtirish imkonini beradi. Shu bilan birga o'rikni bahorgi ayozlardan saqlash muhim omillardan biridir.

**Moyli o'rik navi** – mahalliy nav bo'lib, Surxondaryoning tog'li hududlarida tarqalgan.

Daraxt kuchli o'suvchi bo'lib, mevalari yirik yoki o'rtacha, yumaloq shaklda, vazni 30-35 g. Rangi och-sariqdan qizg'ish tusgacha bo'ladi, meva eti sariq rangda, yumshoq va sersuv. Ta'mi shirin va mazali. Hosilga 4-5 yili kiradi. Mevalari may oyining oxiri – iyun oyining boshlarida



*Moyli o'rik navi*



*Yubileyniy Navoiy navi*

pisha boshlaydi. Hosildorlik o'rtacha bir tupdan 50-60 kg. Kech bahorgi ayozlarga chidamli, kech gullaydi, qurg'oqchilikka bardoshligi yuqori darajada. Teshik dog' kasalligi bilan deyarli shikastlanmaydi.

**Yubileyniy Navoiy navi** – o'rikning yuqori hosildor, sifatli quritilgan mahsulot olinadigan seleksion navi.


Surxondaryoning tog'li yerlarida tomorqalarda yetishtiriladi.

O'rtacha o'suvchi daraxt, o'rtacha kattalikdagi mevalari, cho'ziq-yumaloq shaklda bo'lib, vazni 30-40 g. Odatda silliq tuksiz mevalar och-sarg'ish rangli, oftobga qaragan tomonida och qizil holi shakllanadi. Eti oqish-sariq rangda, qattiq va o'rtacha sersuv bo'lib, shirin, danaklari yirik bo'ladi. Hosilga 3-4 yili kirib, iyun oyida pishadi. Hosildorligi 50-70 kg/tup. Qurg'oqchilik hamda issiqqa chidamli, turli kasallik va zararkunanda-larga nisbatan chidamli.

**Oq o'rik navi** – respublikamizning janubiy mintaqasida tarqalgan o'rikning mahalliy navi. Surxondaryo viloyatining shimolidagi Sariosiyo va Boysun tumanlarida yetishtiriladi. Nav erta pishishi, mevalarini sifati bilan boshqa navlarga

nisbatan ajralib turadi.

Keng shox-shabbali daraxt bo'lib, mevalari o'rtacha hamda mayda, dumaloq, vazni 20-35 g gacha, qorin choki deyarli sezilmaydi. Meva rangi turlicha bo'lib, och oqish rangdan och-sariq ranggacha o'zgaradi. Eti po'stiga nisbatan ochroq rangda, nisbatan qattiq va karsillaydigan, shirin ta'mli, bilinar-bilinmas nordonligi bor. Hosilga 3-4 yili kiradi. Mevalari eng ertaki muddatda pishib, may oyining boshlarida birinchi hosil teriladi. Har bir tupdan o'rtacha 30-50 kg dan meva teriladi. Atrof muhitning noqulay sharoitlariga chidamligi o'rtacha bo'lib, faqatgina kech bahorgi qaytalanuvchi ayozlarga nisbatan chidamsiz hisoblanadi.



*Oq o'rik navi*

**Non dovuchcha navi** – mahalliy navlarning urug'ko'chatlaridan shakllangan nav hisoblana-di.

Daraxt kuchli o'suvchi yoki o'rtacha bo'lib, mevalari o'rtacha va mayda bo'ladi. Shakli odatda noto'g'ri dumaloq bo'lib, vazni 25-35 g gacha yetadi. Ularni rangi sarg'ish-och yashil tusda, eti oqish-sariq rangda, dag'al, qattiq. Ta'mi o'rtacha shirin. Hosilga 3-4 yili kiradi. Mevalari may – iyun oylarida pishadi. Bir tupdan o'rtacha